

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA VOQEALARNING SHAXSLARNING MUALLIF HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Karimova Maxliyoxon Ibragimjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti talabasi



Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boburnoma”da tasvir etilayotgan voqealarning, shaxslarning muallif hayotidagi ahamiyati yuzasidagi fikrlar yoritiladi.

Kalit so’zlar: tasvir, shaxslarning, ahamiyati

Annotation: This article highlights the importance of events and persons in the life of the author described in "Boburnoma".

Key words: image, personality, importance

Bashariyat tarixining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy sohalarida salmoqli o’rin tutgan siymolardan biri buyuk vatandoshimiz Zahriddin Muhammad Boburdir. U 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tavallud topib, 1530-yil 26-dekabrda Agrada vafot etgan. Bobur Mirzo ulug’ shoir va adib, qomusiy ilm sohibi, ayni zamonda mohir lashkarboshi va yirik davlat arbobi ham edi. Uning she’riy devoni, «Boburnoma», «Aruz risolasi», «Xatti Boburiy», «Mubayyin», «Risolayi validiyya» (tarjima) kabi ilmiy va badiiy barkamol asarlari bizgacha yetib kelgan. Bu asarlarning har biri o’zbek nazmi va nasri rivojida muhim bosqichni tashkil etish bilan birga, adabiy-badiiy fikr taraqqiyotiga qo’shilgan katta xissa, XV asr oxiri, XVI asr boshlaridagi O’rta Osiyo, Afg’iston va Hindistonning tarixi, jo’g’rofiyasi, etnografiyasi, o’simlik va hayvonot olami, xalqi, odamlarining kasbkori, tili, hayot tarzi va boshqa xususiyatlari haqida bebaho ma’lumotlarni o’zida mujassam etgan manbadir.

«Boburnoma»da o’ttiz olti yillik voqealar (ayrim o’zilishlarni hisobga olmaganda) bayon etiladi. Tabiiyki, bunday ulkan xotiranoma bir vaqtida va bir xil kayfiyatda yozilgan emas. Shunga binoan, qolaversa, tasvir etilayotgan voqealarning, shaxslarning muallif xayotidagi ahamiyatiga qarab tasvir etilyotgan voqealarning,



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

shaxslarning muallif hayotidagi ahamiyatiga qarab tasvir tarzi va xatto uslubi ham goh falsafiy o'ychan, goho esa shodumon va goho xazin oxang kasb etadi, Ingliz tarjimonlari, «Boburnoman»ning ratsional axborotini to'gri berishga intilish barobarida, uning emotsiyonal jixatlarini muallifning kayfiyatini, uslubini qay darajada tiklay olgan ekanlar?

Masalan, Bobur Daxkat qishlog'i atrofida g'arib va tushkun bo'lib yurgan kunlarini bayon qilgan ekan, matn oxangida ham shunga yarasha ma'yuslik, xazinlik sezildi. Ranglar qorong'ulashganday, tasvir og'irlashganday, xatto Bobur yo'ldoshlarining xazil mutoyabalarida ham qandaydir umidsizlik xislari borday:

Bobur Hind zaminiga qadam qo'yanida ham boshqa bir olamga kirib qolganini tasavvur qilib, xayratlanib, zavq - shavqdan jo'shib, bu zaminni xayrat bilan tasvirlaydi. Uning har bir kalimasida kishi ko'z o'ngida yangi bir olam yastanadi. Qarangki, Mingnaxorga yetgach, nazarga kelgan bu o'zga bir olamda hayvonot dunyosi oddiy giyohdan tortib, ulkan sarv daraxtlarigacha;

Vuxush (vaxshiy xayvonlar) o'zgacha va tuyur (qushlar) o'zgacha kapalakdan, baliqdan tortib, daxshatli timsohlargacha, sayroqi sa'vadan tortib rang-barang to'tiyu tovuslargacha bari o'zgacha, deydi muallif.

Ilon o'ynatuvchidan boshlab beva qolgan ayolni marhum eri bilan olovda quydirishgacha bo'lган manzaralarni Bobur ana shu mo'jaz muqaddima parchada jamlaydi. Ana endi tarjimalarga nazar tashlaylik

Leyden – Erksinda: In the month of Shaban, when the sun was in Aquarius, I set out from Kabul towards Hindustan and proceeding by way of Badam – chashmeh and Jigdalik in six marches reached Adinapur I had never before seen the Hindistan. Immediately on reaching them I beheld new world. The grass was different, the wild animals of a different sort, the birds of a different plumage, the manners and customs of the Ills and Uluses (the wandering tribes) of a kind. I was struck with astonishment, and indeed there was room for wonder.

Beverijda: It was in the month of Shaban the sun being in Aquarius, that we rode out of Kabul for Hindustan, We took the road by Badam – Chasyma and Jagdalik and reached Adinapur in six marches. Till that time I had never seen a hot country or the Hindustan border – land. In Ningnahar another world came to view, other grasses, other trees, other animals, other birds and other manners and customs of clan and horde, We were amazed, truly there was ground for amaze.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Tekstonda: the month of Shaban (January 1505) When the sun was in the sigh of Aquarius we rode out of Kabul for Hindustan.

Stopping six times overnight on the Badam Ghashma and Jagdalik road, we came Adinapur. I had never seen a hot climate or any world came into – view – different plants, different trees, different manners and customs. It was astonishing, truly astonishing.

Tarjimonlar muallifning ko'tarinki ruxiy kayfiyatini u yaratgan manzaraning o'zidayoq anglab yetganlar. Leyden –Erskinlar esa ayni so'zni muqobilini topishga intilib different (rang –barang) so'zini qo'llashgan. Mullif uslubini qayta tiklash borasidagi mahorati shundaki, keyingi tarjimada jumlalar boburona ixchamlik va aniqlik bilan berilgan. Bu yana shunda ham ko'rindiki, ayni parcha oxiridagi hayrat bo'ldi, xayrattur jumlasini berishda ham yaqqol ko'rindi: tarjimon It was astonishing, truly astonishing deya badiiy san`at qullab yakunlaydi. Demak, tarjima tarjimondan nafaqat yaxlit bir asar yoki muallifning kayfiyatini, balki, xar bir jumla, parcha, qism kayfiyatini aniqlashni talab etadi.

Chinakam so'z ustasining uslubi o'z zamondoshlarigina emas balki kelajak zamon kitobxonlariga ham ta'sir etish qobiliyatiga ega, Ammo badiiy asar barcha hollarda ham daf atan o'z kitobxonlarini topavermaydi. U o'zi manzur bo'ladigan xaridorlari, o'quvchilarini topganiga qadar oradan uzoq vaqtlar o'tishi mumkin. Ana shunday qiziqish paydo bo'lishi uchun asar original obrazlar silsilasigagina emas, balki puxta ishlangan uslubiy tizimga, yuksak estetik tuyg'uni yuzaga chiqarish qobiliyatiga ega bo'lmos'i darkor.

Bu to'g'rida "Boburnoma" asarining jafokash tarjimoni A. S.Beverij xonim Boburning uslubiga bergen bahosini o'z tarjimasida keltirib o'tadi va unga qo'shimcha qilib, «Boburnoma»da Hindistonning tabiatи va boyliklarini tasvirlash asnosida asar shu qadar mukammallik kasb etadiki, buni tadqiq qilayotgan kishi unga yangi biror dalil yoki bironta qo'shimcha kirta olishi amri maxol deb yozadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, 1 qism, Porso Shamsiev, Sodiq Mirzaev, O'zbekiston davlat nashriyoti, Toshkent, 1948 yil
2. «Yulduzli tunlar», Pirimqul Qodirov, G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981 yil

Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th June, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

- 
3. «Boburnoma», Zahiriddin Muhammad Bobur, «Sharq» nashriyoti -matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent, 2002 yil
 4. «Boburnoma» - Viler Tekston tarjimasida, Muxdmatismoyil Sobirov, filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan avtoreferatidan, Toshkent, 2000 yil
 5. «Tashakkur, ingliz sharqshunoslari!», Oltin davrim gazetasi, 2005 yil 22 fevral, 3 (69)-son
 6. Zokirov K. Jamolxonov X. O'zbek botanika terminologiyasi masalalari. - Toshkent: 1966.